

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDAGI ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARIDA OMONIMLIK HODISASI

Xudoyberdiyeva Maxbuba Murodovna

Qarshi davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

xudoyberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek terminologiyasida olib borilgan tadqiqot ishlari, ularda o‘zbek tilshunosligining sohaga oid terminlarning leksikografik xususiyatlari, xususan, adabiyotshunoslik terminlaridagi omonimlik hodisasi xususida so‘z boradi. Tilshunoslikda eng murakkab hodisa hisoblangan omonimiya va uning soha terminologiyasidagi o‘rni misollar asosida dalillangan. Har qanday fan sohasining rivojlanishi, takomillashishini ko‘rsatib beruvchi soha terminlarini zamon talabiga mos ravishda shakllantirish va ma‘lum me‘yoriy tartibga keltirishda omonimlik hodisasining o‘rni xususida to‘xtalib o‘tildi.

Tayanch so‘zlar: terminologiya, terminlarning leksikografik tasnifi, izohli lug‘at, adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati, terminologik omonimiya, sohalararo omonimiya, soha terminologiyasi, soha terminologiyasi taraqqiyoti.

Tilshunoslikdagi eng qiziqarli va murakkab hodisalardan biri omonimiya bo‘lib, lingvistik birliklarning o‘zaro ma‘no jihatidan bog‘liq bo‘lmagan jihatlarining turli tovush bilan mos kelishi bilan tavsiflanadi. Omonimiya hodisa tilning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va turli semantik jarayonlarni tushunishda sinchkovlik bilan o‘rganishni talab qiladi.

Ushbu hodisa murakkab va ko‘p o‘lchovli bo‘lib, zamonaviy tilshunoslik va axborot texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladi. D.S.Lotting “Основы построения научно-технической терминологии: вопросы теории и методики”¹ (“Ilmiy-texnik terminologiyani qurish asoslari: nazariya va metodologiya masalalari”) asarida birinchi marta terminologik omonimiya muammolari tizimli ravishda tavsiflangan va ularni hal qilish usullari taklif qilingan. Muallif zamonaviy terminologik ishlarda dolzarb bo‘lib qoladigan ilmiy-texnik terminologiyaning asosiy tamoyillarini ishlab chiqdi. Tadqiqotda terminologiyaning izchilligi va terminologik noaniqlikni bartaraf etish usullariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Terminologik omonimiya murakkab va ko‘p o‘lchovli hodisa bo‘lib, u bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish va hal qilishga kompleks yondashuvni talab qiladi. Omonim terminlarning kelib chiqishi va ishlash mexanizmlarini tushunish samarali ilmiy aloqani rivojlantirishga hamda turli bilim sohalarining terminologik tizimlarini takomillashtirishga yordam beradi.

¹Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: вопросы теории и методики. – М.: Издательство АН СССР, 1961.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

O.S.Axmanova “Словарь лингвистических терминов” (“Tilshunoslik terminlari lug‘ati”) asarida terminologik omonimiyaga quyidagicha ta’rif beradi: “Terminologik omonimiya – bu turli sohalarda qo‘llaniladigan bir xil shakldagi terminlarning mavjudligi hodisasidir”². Masalan, morfologiya biologiya (organizmlarning tashqi tuzilishi haqidagi fan) va tilshunoslikda (so‘z shakllari haqidagi bo‘lim) qo‘llanadi.

Uning fikricha, “terminologik omonimiya salbiy hodisa emas, har bir soha o‘z tizimiga ega bo‘lgani uchun turli sohalardagi bir xil terminlar amalda chalkashlik keltirib chiqarmaydi”. Terminologik omonimiya tilning tabiiy rivojlanish jarayoni natijasi hisoblanadi. Kontekst doimo qaysi sohaga oid termin ishlatilayotganini aniqlab beradi.

Adabiyotshunoslik terminlarida omonimiyaning quyidagi turlarini ko‘rsatish mumkin:

1. Adabiyotshunoslik sohalararo omonimiya (adabiyot nazariyasida; adabiyot tarixida; adabiy tanqidda).

2. Fanlararo omonimiya (lingvistik terminologiya bilan; badiiy tarixiy atamalar bilan; falsafiy tushunchalar bilan).

Terminologik noaniqlik tushunchalar chegaralarini xiralashtirishda, talqinlarning subyektivligi va ilmiy maktablar o‘rtasidagi farqlarda kuzatiladi. Uslubiy qiyinchiliklar terminlar tizimini tanlash, turli yondashuvlarni muvofiqlashtirish hamda qadriyatlar chegaralarini aniqlashda namoyon bo‘ladi³.

Adabiy terminologiyada omonimiya – bu tizimli o‘rganishni va tegishli muammolarni hal qilishda kompleks yondashuvni talab qiladigan murakkab hodisa. Omonim terminlarning kelib chiqishi va ishlash mexanizmlarini tushunish adabiyotshunoslikning fan sifatida rivojlanishiga va adabiy tahlil usullarini takomillashtirishga yordam beradi.

V.M.Jirmunskiyning “Теория литературы. Поэтика. Стилистика” (“Adabiyot nazariyasi. She’riyat. Stilistika”) asari adabiy terminologiya muammolarini fundamental o‘rganishga bag‘ishlangan. Muallif adabiyotshunoslikning tarixiy rivojlanishi sharoitida terminologik omonimiya masalalariga alohida e’tibor beradi. Kitobda birinchi marta adabiyotshunoslikda turli terminologik tizimlarning o‘zaro bog‘liqligi muammolarini muntazam ravishda o‘rganib chiqilganligi va ularni muvofiqlashtirishning uslubiy tamoyillari taklif qilinadi. Tadqiqotda adabiy terminologiyaning shakllanish tarixi va terminologik

² Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1996. – 494 с.

³ Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

omonimiya sabablarini tahlil qilish bo‘yicha boy materiallar mavjud. Terminologik tahlil amaliyotida tahlil bosqichlari quyidagicha ko‘rsatiladi:

- omonim munosabatlarni aniqlash;
- omonimiya turini aniqlash;
- kontekstli tekshirish.

Olim A.Madvaliyev o‘rinli ta’kidlaganidek, “O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida terminlarning berilishi, ularning ma’nosi (yoki ma’nolari)ni belgilash, ma’no(lar)ni izohlashning juda ko‘p nozik qirralari bo‘lib, ularning har biri alohida tadqiqotni taqozo etadi”⁴. Shu maqsadda “O‘zbek tilining izohli lug‘at”larida (2, 5, 6 jildli) berilgan adabiyotshunoslik terminlardagi omonimlik hodisasini o‘rgandik.

Ta’kidlash kerakki, izohli lug‘atlar u yoki bu adabiy tilning ma’lum davridagi holatini belgilash, uni me’yorlashtirish yoki me’yorlarini aniqlash, eng asosiysi, muayyan tilning lug‘aviy boyligini ko‘rsatish va bu boylikni shu tilda so‘zlashuvchilarning yaxshi o‘zlashtirib olishiga yordam berish kabi maqsadlarni ko‘zlagan holda tuziladi. Shuning uchun ham unda ilm-fanning turli sohalarida shakllangan barcha terminlarni aks ettirish maqsadga muvofiq emas, zero, bunday vazifani maxsus tuzilgan terminologik lug‘atlar bajaradi⁵.

Omonim so‘zlar qaysidir ma’nosi bilan adabiyotshunoslik terminga xos bo‘lishini inobatga olib, faqat sohalararo omonimiya bilan chegaralanilmadi. Omonim so‘z bir ma’nosi bilan adabiyotshunoslik termini, boshqa ma’nosi bilan umumiste’moldagi so‘z bo‘lib kelishi mumkinligini ta’kidlab, adabiyotshunoslik terminlarida uchraydigan omonimlikni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Adabiyotshunoslik terminlari boshqa sohalarida qo‘llanadigan terminlar bilan omonimlik hosil qiladi.

2. Omonim so‘z bir ma’nosi bilan adabiyotshunoslik termini, boshqa ma’nosi bilan umumiste’moldagi so‘z bo‘lib keladi.

Ma’lumki, terminlar, asosan, ikki yo‘l bilan hosil bo‘ladi. Birinchi yo‘li chetdan termin o‘zlashtirish bo‘lsa, ikkinchisi umumiste’moldagi so‘zlarning ma’nosini maxsuslashtirish orqali termin sifatida qabul qilishdir.

Quyida adabiyotshunoslik terminlari boshqa sohalarida qo‘llanadigan terminlar bilan omonimlik hosil qilishiga oid misollar keltirildi:

REALIZM I [lot. realis – moddiy, haqiqiy] *ad.* Adabiyot va san’at (tasviriy san’at, teatr, musiqa va b.)da voqelikni, hayotni ifoda vositalari orqali, badiiy obrazlarda butun to‘laligi bilan o‘ziga o‘xshash shartlarda haqqoniy aks ettirish usuli.

⁴ Madvaliyev A. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, 2017. – 385 б. – Б. 204.

⁵ Madvaliyev A. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, 2017. – 385 б. – Б. 189.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

REALIZM II *fls.* Ongdan tashqaridagi mavjud reallik go'yo ideal obyektlarning mavjudligidan yoki subyekt, bilish jarayoni va tajribaga bog'liq bo'lmagan bilish obyektidan iboratdir, deb hisoblovchi falsafiy yo'nalish⁶.

GIPERBOLA I [yun. hyperbole] ayn. mubolag'a.

GIPERBOLA II [yun. hyperballo – biror narsa orqali o'taman] *mat.* Doiraviy konusni uning ikki yasovchisiga paralel tekislik bilan kesganda hosil bo'ladigan egri chiziq⁷.

GIPERBOLIK I *ad.* Mubolag'ali. *Dostonlarda ilon-ajdar real xavfning giperbolik tasviridir.* “O'TA”.

GIPERBOLIK II *mat.* Giperbolaga oid; giperboladan iborat bo'lgan. *Giperbolik funksiya*⁸.

Anglashilyaptiki, “realizm” leksemi adabiyotshunoslik va falsafa sohasida, “giperbola” hamda “giperbolik” leksemalari adabiyotshunoslik va matematikada qo'llanib, omonimlik hosil qilgan. Demak, mazkur terminlarda omonimlik leksemaning terminologik xususiyatida yuzaga chiqqan.

“O'zbek tilining izohli lug'at”larida omonim so'z bir ma'nosi bilan adabiyotshunoslik termini, boshqa ma'nosi bilan umumiste'moldagi so'z bo'lib kelishi ko'p kuzatildi. Jumladan:

METRIK I Metrga oid, asosini metr tashkil qilgan. Metrik o'lchov sistemasi.

METRIK II Metrikaga, vaznga oid. Metrik vazn ad. Qisqa va cho'ziq bo'g'inlarning bir tartibda takrorlanishiga asoslangan she'riy vazn; aruz vazni⁹.

Metrga oid leksikaning ma'nosini maxsuslashtirish orqali she'riy vaznni ifodalovchi termin hosil qilingan.

METRIKA I [pol. metryka < lot. matricula – ro'yxat] Tug'ilganlik haqidagi guvohnoma. Kichik grajdanga metrika kerak, Qayd qilishar rasmiy hujjatda otin. S.Akbaryi.

METRIKA II [yun. metrike < metron – o'lchov, miqdor, katta-kichiklik] ad. She'r vazni, o'lchovi haqidagi ta'limot va she'riy vaznning o'zi¹⁰.

Metrika “tug'ilganlik haqidagi guvohnoma” ma'nosida qo'llanuvchi umumiste'moldagi leksema bo'lib, “she'r vazni, o'lchovi haqidagi ta'limot va she'riy vaznning o'zi” ma'nosini ifoda etuvchi termin sifatida qo'llanadi.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. Н-Т.– Т.: ЎзМЭ, 2006. – Б. 455. – 688 б.

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. А-Д. – Т.: ЎзМЭ, 2006. – Б. 599. – 680 б.

⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. А-Д. – Т.: ЎзМЭ, 2006. – Б. 599. – 680 б.

⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. Е-М.– Т.: ЎзМЭ, 2006. – Б. 682. – 672 б.

¹⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. Е-М.– Т.: ЎзМЭ, 2006. – Б. 682. – 682 б.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Xulosa qilib aytganda, adabiyotshunoslik terminologiyasidagi omonimiya hodisasi fan tilining tabiiy rivojlanish jarayoni bo'lib, u ilmiy-nazariy, amaliy, lingvistik, uslubiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu hodisa adabiyotshunoslik fanining rivojlanishiga, terminologik tizimning takomillashishiga va ilmiy muloqotning samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1996. – 494 с.
2. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977.
3. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: вопросы теории и методики. – М.: Издательство АН СССР, 1961.
4. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, 2017. – 385 б. – Б. 204.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1981.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati 6-jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.